

NUKUS SHAHRIDA MUSICHA *STREPTOPELIA SENEGALENSIS* NING BIOEKOLOGIYASI BO'YICHA MATERIALLAR

**Ametova N.I., Jumanov M.A., Ametov Y.I.,
Babanov R.S., Alimova U.Z.**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti, O'zbekiston
nargizaidirisonva@gmail.com, m_jumanov@karsu.uz*

Annotation: The article describes the collected materials on the bioecology of the Laughing Dove in the city of Nukus in 2021-2024. The authors studied the distribution, nesting, reproduction and nutrition of the Laughing Dove.

Musicha *Streptopelia senegalensis* – Qoraqalpog'istonning madaniy landshaftlarida, shu jumladan, Nukus shahri va uning atrofida qat'iy o'troq holda yashovchi ko'p sonli, keng tarqalgan sinantrop qushlardan sanaladi. Yer yuzida Afrika, Markaziy Osiyo, shimoliy Afg'oniston, Pokiston, Eron va Hindistonda tarqalgan. Musicha beshta kenja turni tashkil etadi O'rta Osiyoda Turkiston musichasi *Streptopelia senegalensis ermanni Bonoparte* yashaydi [4].

XX asrning 90-yillarigacha musicha o'zining uya qurish arealini aholi punktlarda kengaytirib bordi. Lekin XXI asr boshidan boshlab ularning soni kamaya boshladi. Buning asosiy sababi - turlararo raqobatning kuchayib musichaning qumri *Streptopelis decaocto* va mayna *Acridotheres tristis* lar tomonidan qisib chiqarilayotganligidir.

Bizning kuzatishimiz bo'yicha musicha Qoraqalpog'istonning barcha shahar va qishloqlarida, shu jumladan Nukus shahri hududida yilning barcha fasllarida, suv havzalaridan boshqa barcha statsiyalarida keng tarqalgan. Nukus shahrida asosan hovli ayvonlarida, omborlarda va don bozorlarida ko'p uchraydi. Qishda bozorlarda don mahsulotlari saqlanadigan joylarda 30-40 individgacha to'planib tunaydi.

Biz 2021-2023 yillari barcha mavsumlarda Nukus shahrida musichaning asosiy yashash joylarida sanoq ishlarini o'tkazdik. Olib borilgan kuzatishlar natijasida o'rtacha 10 ga maydonda quyidagi natijalarni oldik.

- Bir va ikki qavatli binolardan iborat aholi yashash punktlarida: qishda – 5.8, bahorda – 5.7, yozda – 5.0, kuzda – 7.9 individ to'g'ri keladi.
 - Kichik tumanlar va ko'p qavatli aholi yashash binolarida: qishda – 3.5, bahorda – 3.1, yozda – 3.4, kuzda – 6.3 individ to'g'ri keladi.
 - Ko'kalamzorlashtirilgan maydonlar va shahar chetidagi to'qaylarda: qishda – 12.0, bahorda – 2.9, yozda – 5.1, kuzda – 6.7 individ to'g'ri keladi.
 - Suv havzalari va uning sohillarida kuzatilmadi.
 - Ruderal maydonlar va yo'llarda: qishda – 21.6, bahorda – 13.0, yozda – 7.3, kuzda – 10.7 individ to'g'ri keladi.
 - Industrial markazlarda: qishda – 15.8, bahorda – 4.1, yozda – 2.0, kuzda – 30.9 individ to'g'ri keladi.
 - Qabristonlar va unga yaqin dala va cho'llarda: qishda – 0.5, bahorda – 2.2, yozda – 1.9, kuzda – 1.0 individ to'g'ri keladi.
- Nukus shahri bo'yicha: qishda – 9.9, bahorda – 5.2, yozda – 4.1, kuzda – 10.2 individ to'g'ri keladi.

Adabiyot ma'lumotlari bo'yicha musichalarning ko'payishi A.A.Kotov tomonidan Samarkand, Taxiotosh va Xojayli shaharlari sharoitida polaponlarning o'sib-rivojlanishi o'rganilgan va ko'zatishlar natijasida Amudaryoning quyi oqimi hududlarida musichalar 2-3 marta emas, balki sovuq havo boshlanmastan 4 marta tuxum qo'yishi mumkinligini ko'rsatadi [2].

M.B.Ametov tomonidan 1975 yili 10-14 fevral kunlari Nukus shahri ko'chalarida musichalarning juftlashib, nikoh o'yinini o'ynayotganini kuzatgan. 18 fevral kuni bitta juft musichalar eski uyani tazalashga kirishgani va uni yangi qurilish materiali bilan ta'mirlay boshlagan. Uya 22 fevral kuni tayyor bo'lgan. 4 mart kuni uyaga birinchi tuxumni qo'ygan. 5 mart kuni ikkinchi tuxumni qo'ygan. Tuxum bosish jarayoni birinchi tuxum qo'yilgandan so'ng boshlanadi. Ko'pchilik holda Amudaryoning quyi oqimida 18 ta ro'yxatga olingan uyalarda, tuxum bosib yotish jarayoni o'rtacha 16-17 kun davom etgan. Musichalar odatda uyaga oqimtir rangli 2 ta tuxum qo'yadi [1].

A.M.Mambetjumayev Nukus shahrida musichalarning 18 ta uyasini kuzatgan, tuxum qo'yilgan uylar 1956 yili 25 aprelda, 1957 yil 22 martda, polaponlar bor ikkita uyalarni 10 may va 6 aprelda uchratgan. 1967 yil 22-23 fevral oylarida 2 ta tuxum qo'ygan uyalardan 10 va 11 mart kunlari polaponlar chiqqan (17-18 kunda), 27-28 martda qo'yilgan tuxumlar, ya'ni ikkinchi uyada inkubatsiya jarayoni 15-16 kun davom etgan. 1969 yilda 2 ta uyadan 2 martadan polaponlar chiqarishdi, eng so'ngi uyadan polaponlar 4 oktabr kuni uchib ketgan. 1971 yili 3 ta uya kuzatilgan, inkubatsiyasi 3 fevralda boshlangan uyadan 19-20 fevral kunlari 17-18 kunda polaponlar chiqqan. 4 fevral kuni birinchi uyaga 2 ta tuxum qo'ygan, undan jo'jalar 20-21 fevralda, ya'ni 16-17 kunda chiqqan. Shuni aytib o'tish kerak, faqat 1971 yili kuzatilgan uyalarda fevral oyida jo'ja chiqqan, undan so'ngi yillar va kuzatishlarda ushbu jarayon qayd etilmagan [3].

Musichaning biologiyasi va ekologiyasi bo'yicha ma'lumotlar 2021-2024 yillarda Nukus shahri hududida to'plandi. Musichaning nikoh o'yinini boshlanishi uya qurish joylarini tanlash bilan bog'liq bo'lib, bunda asosiy rol nar qushga tegishlidir. U qulay joyni tanlab modasini chaqira boshlaydi. Havo ochiq kunlari intensiv g'urrillaydi, past havo bulutli kunlari bo'lsa ularning faolligi pasayadi. Sutka davomida g'urrillash faolligi o'zgarib turadi. Ko'pincha ertalab va kechasi g'urrillaydi. Erta bahor va kuz mavsumida ham kun o'rtasida musichalarning g'urrillashi tez-tez eshitilib turadi. Yozda issiq kunlari qushlar ertalab soat 10.00-11.00 gacha, kechasi 17.00-18.00 dan so'ng faollashadi. Qolgan vaqtlari ular suvga yaqin joyda yoki daraxtlarning soyali shoxlarida o'tirishadi.

Bizning kuzatishimiz bo'yicha Nukus shahrida musichalar juft bo'lib yashaydi va juftini juda erta tuzadi. Bizningcha, ular butun qish davomida ajralmaydi. Ularning juftlashishini qishning o'rtalsrida ko'rish mumkin bo'ladi.

Juftlashish oldidan nar qush g'urillaydi va modasining izidan yuguradi. Iliq havo kunlari Ashxobodda musichaning g'urillashi va juftlashishi hatto dekabr oyida ham sodir bo'ladi [4].

M.Ametovning kuzatishlari bo'yicha 1975 yili 10-14 fevral kunlari Nukus shahri ko'chalarida musichalar juftlashib va bir-birining izidan quvishib yurgan. 18-fevral kuni bir jufti o'tgan yilgi uyani tozalashga kirishgan va yangi qurilish materiali bilan tuzatib boshlagan. Uya 22 fevral kuni tuxum quyishga tayyor bo'lgan. 4 mart kuni uyaga 1-tuxum, 5 mart kuni 2-tuxum qo'yilgan [1].

Bizning kuzatishimiz bo'yicha Nukus shahrida musichalar fevral oyidan uya qurishga kirishadi. Uya qurilishida ikki jins vakili ham ishtirok etadi. Nar qush ingichka shoxlarni olib keladi, modasi esa uya quradi. Uyani asosan ertalabki vaqtlari quradi.

Musichalar uyalarini ko'pincha devor yoriqlariga, karnizlarga, uy tepasining ostilariga va boshqa joylarga quradi. Ba'zida daraxtlarga va tok shoxlarining kesilgan joylariga uya quradi.

Uya ko'pchilik holda dumaloq shaklda, chetlari yaxshi himoyalanmagan va sayoz bo'ladi. Musicha uyasini yaqin atrofdagi daraxtlarning ingichka, quruq shoxlaridan quradi, uyasi juda yupqa va bo'sh bo'lib, uyaning tagidan tuxum ko'rinib turadi. Uyaga yumshoq to'shak to'shalmaydi.

Barcha kaptarsimonlar singari musichalar uyaga oq rangli oval shakldagi 2 ta tuxum qo'yadi. M.B.Ametov [1] tomonidan 4 ta uyadan olingan 8 ta tuxumlarning o'lchamlari: 26.0-29.0 x 19.0-21.5 mm (o'rtacha 27.7 x 20.6 mm). tuxumlarning (n=35) og'irligi 14.65-16.8 g (o'rtacha 15.73 g). Yangi tug'ilgan polaponlarning og'irligi 4 g 650 mg - 6 g 600 mg. (o'rtacha 5 g 720 mg) kelgan.

Bizning kuzatishlarimiz bo'yicha Nukus shahrida tuxumlarning (n=24) o'lchami: 25,8 - 28,6 x 19,4 - 21,3 mm (o'rtacha 27,6 - 20,2), yangi tug'ilgan tuxumlarning massasi 4,5-6,4 g. (o'rtacha 5,6 g) ni tashkil etadi. Tuxum bosish davri 16-18 kun davom etadi. Yangi tug'ilgan polaponlarning og'irligi (n=14) 5,0-5,7 g (o'rtacha 5,4) kelsa, uchinchi kuni 14,2-14,6 g ga yetadi. 13-kuni polaponlar maksimal og'irlikga (83,1 g) ega bo'ladi, so'ngra og'irlikning o'sishi pasayadi. 16-17 kuni polaponlar qanot patlari to'liq o'sib bo'lmay uyani tark etadi (1-jadval).

Jadval

Musicha polaponlarining (n=6) og'irligi va tanasining ayrim a'zolarining o'sishi

Palopan yoshi, kunlarda	Tana og'irligi, g	Tanasining ayrim a'zolarining uzunligi (mm)			
		tumshug'i	tirsagi	qanoti	dumi
1	5,2	6,5	7,2	9,1	-
3	14,4	8,1	10,2	13,9	-
5	32,2	9,5	15,1	25,1	3,5
7	53,0	11,2	16,3	43,2	12,0
9	67,1	13,1	19,1	59,1	22,5
11	79,2	13,5	22,0	74,2	31,0
13	83,1	14,1	23,1	88,3	44,0
15	81,4	14,3	24,0	98,7	56,4

Musichalarning uyadagi davri 7-8 oyni tashkil etadi. Samarqandda ko'pchilik juftlar 4-5 marta ko'payishga kirishadi [2]. Nukus shahrida esa 3-4 marta uya quradi.

Musichalar asosan donli oziqa bilan oziqlanadi. Biz 8 ta musichaning oshqozonini tekshirib ko'rganimizda, mosh, sholi, jo'xori, tariq, xasharotlar, o'rgimchak va chumolilar, yana non qoldiqlarini topganmiz. Demak, musicha oziqa ratsionini deyarli 94-95% ni donli oziqalar egallaydi. Shunga qaramasdan ular don omborlari, elevator va dalalarda donli ekinlarga sezilarli ziyon yetkazmaydi. Shu sababdan ularni kamayib borayotganini hisobga olib himoya qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аметов М.Б. К экологии туркестанской малой горлицы // Экология птиц и млекопитающих долины Амударьи, Устюрта и Кызылкумов. – Нукус, 1993. – С. 59-66.
2. Котов А.А. К биологии малой горлицы//Орнитология. – Москва, 1976. Выпуск 12. – С. 132-143.
3. Мамбетжумаев А.М. О гнездовании туркестанского сизого голубя и малой горлицы в низовьях Амударьи // Вестн.Каракалпакск.Отделена АН РУз. - Нукус. - 1994. - №2. - С. 34-37.
4. Мекленбурцев Р.Н. Малая горлица//Птицы Узбекистана. Отряд голубеобразные – Ташкент: Фан, 1990. – Том 2. – С. 203-206.
5. Ruyiddinov A. X. et al. QASHQADARYO VILOYATI ORNITOFAUNASINING EKOLOGIK XUSUSIYATLARI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T. 1. – №. 12. – С. 503-506.

6. Kh. Boymurodov, S. Khorazov, G. Bobonazarov, & B. Davronov (2024). COMPARATIVE ANALYSIS OF THE POPULATION INDICATORS OF THE SPECIES SINANODONTA GIBBA AND SINANODONTA RUERORUM OF THE UNIONIDAE FAMILY IN THE WATER ECOSYSTEMS OF THE SYRDARYO AND SANGZOR RIVERS. Science and innovation, 3 (D5), 13-18. doi: 10.5281/zenodo.11137993
7. Rakhmatullaev A., Gafurova L., Egamberdieva D. Ecology and role of earthworms in productivity of arid soils of Uzbekistan //Dynamic Soil, Dynamic Plant. – 2010. – Т. 4. – №. 1. – С. 72-75.
8. Рахматуллаев, А. Ю., Давронов, Б. О., Норкobilова, З. Б., & Омонова, Н. Р. (2021). Фауна Дождевых Червей В Узбекистана. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 310-314.
9. kizi Norkobilova Z. B., Rakhmatullayev A. Y., ogli Boyjigitov O. D. PRELIMINARY INFORMATION ABOUT DRAGONFLIES FAUNA DISTRIBUTED IN KASHKADARYA REGION //World of Scientific news in Science. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 5-14.
10. Абдикаюмовна, ХГ (2023). В данной статье приведены сведения о видах, условиях обитания, строении, фауне, экологии, распространении и значении моллюсков в жизни человека в водоемах нашей республики. *ЖУРНАЛ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ И НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ*, 2 (5), 78-81.
11. Orziyevich D. B. MOLLUSCS ARE INTERMEDIATE HOSTS OF HELMINTHS IN THE SOUTH OF UZBEKISTAN //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – Т. 3. – №. 04. – С. 249-252.
12. Kuchboev A. E. et al. Molecular phylogeny and diagnosis of species of the family Protostrongylidae from caprine hosts in Uzbekistan //Parasitology Research. – 2015. – Т. 114. – С. 1355-1364.